

**ILMIY-TADQIQOT ISHLARIGA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA
ILMIY LOYIHANI BAJARISH TO‘G‘RISIDA
SHARTNOMA
AL-9224104589-son**

2025-yil “5”- sentabr

Toshkent sh.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Buyurtmachi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **Rajabbayev Sharof Raximberdiyevich** bir tarafdin, Loyiha rahbari **Omonov Qudratulla Sharipovich** ikkinchi tarafdin, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (keyingi o‘rinlarda – Ijrochi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi rektor **Rixsiyeva Gulchexra Shovkatovna** uchinchi tarafdin, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Moliyalashtiruvchi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi Ijro etuvchi direktor v.v.b. **Tavakalov Jonibek Tavakalovich** to‘rtinchi tarafdin, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsiyalar kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash)ning 2025-yil 15-apreldagi 5-son bayoni hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 28-apreldagi 151-son buyrug‘iga muvofiq taraflar o‘rtasida mazkur shartnoma tuzildi.

I. Shartnoma predmeti

1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Ijrochi va loyiha rahbari Buyurtmachining topshirig‘iga binoan mazkur shartnomada belgilangan **“VII-XI asrlarda yaratilgan turkiy yozma yodgorliklarning elektron korpusini yaratish”** mavzusidagi **amaliy tadqiqot** loyhasini bajarish va uning natijasini Buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish, Moliyalashtiruvchi esa moliyalashtirish majburiyatini oladi.

2. Loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlar va ularni bajarish muddatlari hamda bajarilgan ishlar bo‘yicha taqdim etiladigan hisobot shakllari ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan kalendar rejaga asosan belgilanadi.

II. Shartnomaning moliyaviy hajmi va moliyalashtirish tartibi

3. Moliyalashtiruvchi tarafdin loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi **1 317 692 000 (bir milliard uch yuz o‘n yetti million olti yuz to‘qson ikki ming)** so‘mni tashkil etadi. Shundan birinchi yilda bajariladigan ishlar uchun **628 172 000 (olti yuz yigirma sakkiz million bir yuz yetmish ikki ming)** so‘m moliyalashtiriladi. Loyihani moliyalashtirish mazkur shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

4. Moliyalashtiruvchi tarafidan loyihaning tadqiqot davri mobaynida loyihani amalga oshirishda mehnatga haq to'lash va boshqa xarajatlar uchun loyihaga ajratiladigan har yillik mablag'ning 95 foizi moliyalashtiriladi.

Bunda, chegirib qolinadigan 5 (besh) foiz mablag' loyiha doirasida ish haqi va ijtimoiy soliq hamda boshqa xarajatlari uchun ajratilgan jami mablag'larning nisbatiga mutanosib ravishda ushlab qolinadi

Ish haqri va ijtimoiy soliq xarajatlaridan ushlab qolinadigan mablag'lar qoida tariqasida loyihaning tasdiqlangan har yilgi xarajatlar smetasining oxirgi oyidan chegiriladi.

5. Moliyalashtiruvchi tarafidan loyihaga ajratiladigan mablag'ning chegirib qolingani 5 foizini moliyalashtirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

Ijrochi tarafidan loyiha bo'yicha oraliq/yakuniy ilmiy hisobotlar shartnomaning kalendar rejasida belgilangan hisobot oyining 15 sanasiga qadar Buyurtmachiga taqdim etilgan taqdirda, Buyurtmachining ko'rsatmasiga asosan chegirib qolingan mehnatga haq to'lash va ijtimoiy soliq xarajatlari moliyalashtiriladi;

Ijrochi tarafidan taqdim etilgan oraliq/yakuniy ilmiy hisobotlar mustaqil ekspertlar tavsiyasi asosida Buyurtmachi tomonidan qabul qilganidan so'ng, Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan boshqa xarajatlardan chegirib qolingan mablag'lar moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy soliq xarajatlari uchun moliyalashtiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga muvofiq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarishi munosabati bilan Davlat budjetidan Moliyalashtiruvchiga ushbu maqsadga mablag' ajratilgan taqdirda loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

7. Buyurtmachining huquqlari:

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda;

loyihani amalga oshirish natijalariga oid ma'lumotlarni, ilmiy va moliyaviy hisobotlarni Ijrochidan talab qilish;

Ijrochi va Loyiha rahbari bilan kelishilgan holda ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Mazkur shartnoma shartlari Ijrochi va Loyiha rahbari tarafidan bajarilmaganda yoki tegishli darajada bajarilmaganda ushbu loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki to'xtatish to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish, shuningdek, shartnomani bir tarafdama bekor qilish.

8. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan loyihani ijrosiga oid barcha axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasida ajratilgan mablag'larni o'z muddatida moliyalashtirilishini talab qilish.

9. Loyiha rahbarining huquqlari:

Ijrochidan loyihani ijrosiga oid barcha zarur axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasidagi ishlarni bajarish uchun mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirilishini talab qilish.

10. Moliyalashtiruvchining huquqlari:

Ijrochi tashkilot tarafidan davriy moliyaviy hisobotlar belgilangan muddatlarda topshirilmagan taqdirda Buyurtmachini ogohlantirgan holda loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish.

11. Buyurtmachining majburiyatlari:

Ijrochi tarafidan taqdim etilgan shartnoma, xarajatlar smetasi va kalendar rejani ko'rib chiqish va kelishish;

mazkur shartnoma asosida, uning xarajatlar smetasiga mos ravishda loyihani moliyalashtirish to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish;

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda.

12. Ijrochining majburiyatlari:

kalendar rejaga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini o'z muddatida Buyurtmachiga topshirish. Loyiha doirasida ijrochi tomonidan yaratilgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari, davlat ilmiy-texnik loyihalar yakunlanganidan va (yoki) ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin tijorlashtirilishi shart, fundamental va tajriba-konstruktorlik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi loyihalar bundan mustasno;

loyiha doirasida yaratilgan tadqiqot natijalarini Web of Science va Scopusning ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda hamda boshqa nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilishini ta'minlash;

tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlarni olish;

bajarilgan ishlarda o'zining aybi bilan yo'l qo'yilgan, shartnomada nazarda tutilgan parametrlardan chekinishga olib kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni o'z kuchi bilan va o'z hisobidan bartaraf etish;

kutilayotgan natijalarni olish mumkin emasligi yoki ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, bu haqida Buyurtmachini besh ish kuni muddatda xabardor qilish;

shartnoma asosida topshirilgan natijalarga uchinchi shaxslarda alohida huquqlar yo'qligi haqida buyurtmachiga kafolat berish;

loyihani sifatli va samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ashyolar, asbob-uskunalar, qurilmalar, ishlab chiqarish maydonlari bilan ta'minlash va boshqa zarur sharoitlarni yaratish;

shartnomada ko'zda tutilgan mablag'lar va tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritish va ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash;

ilmiy-tadqiqot o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash;

loyiha uchun ajratilgan mablag'larni sarflanishi yuzasidan choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni hisobot davridan keyingi oyning yigirma beshinchi sanasiga qadar "UzASBO" dasturiy majmuasi orqali elektron shaklda Moliyalashtiruvchiga taqdim etish;

Buyurtmachi tarafidan joyiga chiqqan holda loyihaning bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan monitoring uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgarganda taraflarni 10 ish kun ichida xabardor qilish;

loyiha doirasida ajratilgan budget mablag'larini xarajatlar smetasi asosida belgilangan tartibda va miqdorda maqsadli sarflanishini ta'minlash;

Moliyalashtiruvchi tarafidan loyihaga moddiy rag'batlantirish uchun ajratilgan mablag'larni Ilmiy xodimlarni moddiy rag'batlantirish jamg'armasini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 2 noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2029) talablari asosida maqsadli sarflash;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligini ta'minlash.

13. Loyiha rahbarining majburiyatlari:

shartnoma shartlarini va loyihani o'z muddatlarida sifatli va to'liq bajarish, moliyaviy mablag'lar va moddiy-texnik resurslarni maqsadli ishlatish;

shartnoma bo'yicha ishlarni to'liq hujjatlashtirish va o'z vaqtida ilmiy va moliyaviy hisobotlarni topshirish;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir.

14. Moliyalashtiruvchining majburiyatlari:

Taraflar o'rtasida shartnoma tuzilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborot tizimida loyiha uchun alohida milliy valyutadagi shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochish;

mazkur shartnoma bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan loyihani moliyalashtirish;

Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish va (yoki) to'xtatish.

IV. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

15. Ijrochi loyihaning tasdiqlangan kalendar rejasiga asosan tayyorlangan oraliq/yakuniy ilmiy hisobotlarni shartnomaning kalendar rejasida belgilangan hisobot oyining 15 sanasiga qadar Buyurtmachiga taqdim etadi.

Agarda oraliq/yakuniy ilmiy hisobotlar Ijrochi tarafidan belgilangan muddatlarda Buyurtmachiga taqdim etilmagan taqdirda, mehnatga haq to'lash va ijtimoiy soliq

xarajatlaridan chegirib qolingan mablag'lar Buyurtmachining ko'rsatmasiga asosan moliyalashtirilmaydi.

16. Mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning natijasi, uning yakuniy hisobotlari Buyurtmachi tarafidan qabul qilib olinadi.

Agarda Ijrochining yakuniy ilmiy hisobotlari bo'yicha mustaqil ekspertlar tavsiyasi berilmagan taqdirda loyihaning tasdiqlangan xarajatlar smetasida boshqa xarajatlardan chegirib qolingan mablag'lar Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan moliyalashtirilmaydi.

17. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq choraklik, 6 oylik, 9 oylik va yillik moliyaviy hisobotlar Ijrochi tarafidan hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasigacha topshiriladi.

18. Choraklik moliyaviy hisobot natijalari bo'yicha ajratilgan mablag'larning sarflanmay qolgan qismi Buyurtmachi tomonidan maqbullashtirilishi mumkin.

19. Ish bosqichlarini qabul qilish jarayonida ushbu shartnomaning kalendar rejasida ko'rsatilgan talablariga mos kelmasligi aniqlansa, Ijrochi belgilangan ishlar hajmini o'z hisobidan kelishilgan muddatda to'liq bajarishga majbur.

20. Agar ishni bajarish jarayonida salbiy natija olish holati yoki ishni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, Ijrochi ishni to'xtatishi va bu haqida bir hafta muddatda Buyurtmachini rasmiy xabardor qilishi zarur. Ushbu hollarda taraflar ishni keyinchalik davom ettirish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligi to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qiladilar.

21. Ijrochi tarafidan loyiha Buyurtmachi bilan kelishilgan kalendar reja doirasida bajarilmaganligi aniqlansa, oraliq bosqich hujjatlari va hisobotlar belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilmasa hamda o'z muddatlarida topshirilmasa, bunday holatlarda Buyurtmachi qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) bilan Moliyalashtiruvchi tarafidan moliyalashtirish to'xtatiladi va shartnoma bekor qilinadi.

V. Shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi

22. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi va (yoki) tegishli darajada bajarmaganligi uchun, agar shartnomaning buzilishida o'zining aybi yo'qligini isbot qilmasa, Buyurtmachining loyiha doirasida moliyalashtirilgan mablag'ini Ijrochi va Loyiha rahbari birgalikda qoplashi shart.

Moliyalashtiruvchi tarafidan loyiha doirasida moliyalashtirilgan mablag'larning Ijrochi va Loyiha rahbari tarafidan maqsadsiz va samarasiz sarflanganligi yoki budjet va smeta-shtat intizomiga rioya etmaganligi uchun Buyurtmachi va Moliyalashtiruvchi javobgar bo'lmaydi.

23. Ijrochi tarafidan shartnoma shartlari bajarilmagan holatlarda ishlar bajarilmagan va shartnoma shartlari buzilgan deb hisoblanadi. Ushbu holatda Moliyalashtiruvchi Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan moliyalashtirishni to'xtatadi.

24. Shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda taraflar ushbu shartnoma va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida javobgardir.

VI. Korrupsiyaga qarshi kurash

25. Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bilan bog'liq barcha amaldagi qonunlar, qonunosti hujjatlar, shu jumladan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga rioya qilishni o'z zimmalariga oladilar.

26. Tomonlar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq hech qanday korrupsiyaviy harakatlar yoki harakatsizlikni sodir etmaslikni tasdiqlaydi va kafolatlaydi.

27. Tomonlar korrupsiyaviy harakat yoki harakatsizlik haqida voqea/hodisa sodir etilgan kundan boshlab 5 ish kun ichida xabar berishi kerak.

28. Buyurtmachi korrupsiyaga qarshi bandlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida mazkur shartnoma bilan bog'liq faoliyati bo'yicha audit o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

29. Buyurtmachi korrupsiyaviy holatlar to'g'risida xabar bergan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi va kafolatlaydi.

30. Mazkur bandlarga rioya qilmaslik yoki ularni to'la bajarmaslik bevosita shartnomani bekor bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

31. Taraflar agar ulardan birining xatti-harakatlari orqali mazkur bo'limda ko'rsatib o'tilgan bandlardan birini buzish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

VII. Fors-major holatlari

32. Agar shartnoma majburiyatlari quyidagi holatlarning vujudga kelishi natijasida bajarilmagan bo'lsa, taraflarning birortasi ham o'ziga olgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi: suv bosish, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek urush, harbiy harakatlar yoki shartnoma tuzilgandan keyin taraflarning nazoratidan tashqarida yengib bo'lmas kuch ta'sirida sodir bo'lgan holatlar. Bunda, ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish muddati bunday holatlarning harakatlanish davriga mos ravishda keyinga suriladi.

VIII. Boshqa shartlar

33. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari shartnomani bajarish yuzasidan Buyurtmachi oldida solidar tarzda javobgar hisoblanadilar.

34. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan ishlanmalar, chop etilgan maqolalar, monografiyalar, ommaviy-axborot vositalaridagi ma'lumotlarda ishlar Buyurtmachi tarafidan moliyalashtirilgan loyihalar doirasida bajarilganligini qayd etishlari shart.

35. Loyiha doirasida huquqiy muhofaza qilinishi zarur bo'lgan ilmiy natija olinsa Loyiha rahbari bir hafta muddatda Ijrochiga bu haqida yozma xabar berishi lozim. Ijrochi ikki hafta muddatda o'zining ilmiy-texnikaviy kengashida xabarni ko'rib chiqib, intellektual mulk obyektni muhofaza qilish to'g'risida qaror qabul qiladi va Buyurtmachiga bu haqda axborot beradi. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish Buyurtmachi bilan yozma ravishda oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

36. Loyiha ijrochilari bilan tuziladigan mehnat shartnomasida qonunchilik hujjatlari hamda ushbu shartnoma shartlari asosida loyiha doirasida yaratiladigan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilinishini ta'minlashga doir band kiritilishi lozim.

37. Loyiha doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlari uchinchi tomonga beriladigan bo'lsa, litsenzion kelishuv asosida berilishi va litsenzion kelishuvda texnologiya (ishlanma) muallif(lar)i, Ijrochi hamda uchinchi tomon o'rtasida foyda taqsimlanishi ko'rsatiladi.

38. Ushbu shartnoma bo'yicha loyihani bajarilishi uchun sotib olingan asbob-uskunalar, qurilmalar ish bajarilgandan so'ng Ijrochi balansida qoldiriladi. Moliya yilining oxirida har bir sotib olingan asbob-uskuna, qurilma va boshqalar bo'yicha moliyaviy xarajati ko'rsatilgan ro'yxat Buyurtmachiga taqdim etiladi.

39. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish taraflarning kelishuviga binoan belgilangan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta shartlari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari yoki sud qarorlariga muvofiq o'z kuchini yo'qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo'lishiga asos bo'lmaydi.

40. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi. O'zaro kelishuv ta'minlanmagan holda kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

41. Taraflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi.

42. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

43. Shartnoma bo'yicha loyihaning bajarilish muddati: 2025-yil 1-oktabrda boshlanadi va 2027-yil 30-sentabrda yakunlanadi.

Mazkur shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'ladi hamda taraflar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amalda bo'ladi.

44. Ushbu shartnoma shartnomaning har bir tarafi uchun teng yuridik kuchga ega bo'lgan 4 (to'rtta) asl nusxada tuzildi. 1-nusxa Buyurtmachiga, 2-nusxa Ijrochiga, 3-nusxa Loyiha rahbariga va 4-nusxa Moliyalashtiruvchiga taqdim etiladi.

IX. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari

Buyurtmachi

Ijrochi

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Innovatsion rivojlanish
agentligi**

**Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti**

100174, Toshkent sh., Olmazor t.,
Universitet ko'chasi, 7-uy
Tel.: 71 203-32-23
Sh/h: 400110860262807014301254001
O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
G'aznachilik xizmati qo'mitasi
H/r: № 23402 000 300 100 001 010
MB XKKM BB Toshkent sh.
STIR: 201 122 919 MFO:00014
STIR: 305 166 715

100060, Toshkent sh., Amir Temur
ko'chasi, 20-uy
Tel.: (71) 233-43-00
Sh/h: 100010860262737094100350001
O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
G'aznachilik xizmati qo'mitasi
H/r № 23402 000 300 100 001 010
MB XKKM BB Toshkent sh.
STIR: 201 122 919 MFO:00014
STIR: 201 992 106



Direktor

Sh. Rajabbayev



Rektor

G. Rixsiyeva

Moliyalashtiruvchi

Loyiha rahbari

**Ilm-fanni moliyalashtirish va
innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash
jamg'armasi**

Omonov Qudratulla Sharipovich

100174, Toshkent sh., Olmazor t.,
Universitet ko'chasi, 7-uy
Tel.: 71 203-17-00;
Sh/h: 302810860262737015401254002
O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi
G'aznachilik xizmati qo'mitasi
H/r: № 23402 000 300 100 001 010
MB XKKM BB Toshkent sh.
STIR: 201 122 919 MFO:00014
STIR: 304 999 794

Yashash manzili: Go'zal MFY, 8-tor
ko'chasi, 7-b uy
Pasport ma'lumotlari: 11.12.1972-y.t.
AD 3250088 (IIV 26291 tomonidan
08.05.2023-yilda berilgan)
JSHSHIR: 31112720171228
Tel.: (97) 720-32-77
Elektron pochta:
qudratomonov@gmail.com

**Ijro etuvchi direktor
v.v.b.**

v.v.b.

Tavakalov

Loyiha rahbari

Q. Omonov

2025-yil 5-sentabr dagi
AL-9224104589-son shartnomaga
1-ILOVA

**Shartnomaga muvofiq bajariladigan ishlarning
KALENDAR REJASI**

T/r	Amalga oshiriladigan ishlar* (Loyihaning har bir yili bo'yicha oylar kesimida)	Amalga oshirish/hisobotni taqdim etish muddati**	Taqdim etiladigan hisobot shakli***
Birinchi yil			
1.	Loyihani bajarish uchun kalendar ish rejasi tuziladi, loyiha a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimlanadi. Mavzu yuzasidan o'zbek va xorij tillarida monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar, dissertatsiyalar, ilmiy jurnallar, konferensiyalar haqidagi ma'lumotlar yig'ila boshlanadi. Loyihada ishtirok etadigan olimlari uchun telegramm kanali ochiladi. Bu kanalda loyiha bo'yicha yangiliklaridan xabardor qilib turiladi.	Oktabr	
2.	Mavzu yuzasidan o'zbek va xorij tillarida monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar, dissertatsiyalar, ilmiy jurnallar, konferensiya to'plamlaridagi VII-XI asrlarda yaratilgan turkiy-run yozuvli turkiy yozma yodgorliklar ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.	Noyabr	
3.	VII-IX asrlarda turkiy-run yozuvida bitilgan Mo'g'ulistonning Urxun vohasida saqlanayotgan yodgorliklar matniy bazasi shakllantiriladi. Mo'g'ulistonga epigrafik ekspedisiya va xizmat safari tashkillashtiriladi.	Dekabr	
4.	VII-IX asrlarda turkiy-run yozuvida bitilgan Mo'g'ulistonning Urxun vohasida saqlanayotgan yodgorliklar matniy bazasi shakllantiriladi.	Yanvar	
5.	VII-IX asrlarda turkiy-run yozuvida bitilgan Mo'g'ulistonning Urxun vohasida saqlanayotgan yodgorliklar reestri va bazasi yaratiladi	Fevral	
6.	VII-XI asrlarda turkiy-run yozuvli turkiy yodgorliklar, jumladan, Germaniya va Britaniya fondlarida saqlanayotgan yodgorliklarning matniy bazasi va reestri yaratiladi.	Mart	
7.	VII-XI asrlarda turkiy-run yozuvli turkiy yodgorliklar, jumladan, Britaniya fondlarida saqlanayotgan yodgorliklarning matniy bazasi va reestri yaratiladi hamda respublika va horij jurnallarida maqola e'lon qilinadi.	Aprel	

8.	VII-XI asrlarda turkiy-run yozuvli Rossiyada saqlanayotgan turkiy yodgorliklarning matniy bazasi va reestri yaratish.	May	
9.	VII-XI asrlarda yaratilgan turkiy-run yozuvli Rossiyada saqlanayotgan turkiy yodgorliklarning matniy bazasi va reestri yaratish hamda respublika va horij jurnallarida maqola e'lon qilish.	Iyun	
10.	TDSHU ilmiy salohiyotidan unumli foydalanib, tajribali mutaxassislarni jalb etgan holda yangi xorijdan olib kelingan turkiy-run yozuvli yodgorliklarning eng saralarini tabdili boshlanadi. OAK jurnallarida 2 ta, xalqaro jurnalda 3 ta maqola nashr qilinadi.	Iyul	
11.	Germaniya Berlin fondlariga xizmat safari tashkillashtiriladi, turkiy-run yozuvli yodgorliklar bazasi va reestri shakllantiriladi. Loyiha doirasida Scopus yoki Web of Science ma'lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda 3 ta maqola chop etiladi. Oraliq hisobotni shakllantirish va taqdim etish	Avgust-Sentabr	
12.	Oraliq (yillik) hisobot taqdim etish	Loyihaning birinchi yilida oxirgi oyning 15-sanasiga qadar	Oraliq (yillik) hisobot
Ikkinchi yil			
1.	Turkiyalik turkshunos olimlar bilan hamkorlikda turkiy-run yozuvli yodgorliklar tadqiqiga bag'ishlangan onlayn ilmiy seminar o'tkaziladi, yil davomida erishilgan natijalar muhokama qilinadi.	Oktabr	
2.	To'plangan va matniy bazasi shakllantirilgan VII-XI asrlarda yaratilgan turkiy-run yozuvli yodgorliklar ilmiy tavsiflanadi va dasturchilarga tayyor materiallar platformaga joylash uchun topshiriladi.	Noyabr	
3.	Topilgan yodgorliklar tavsiflanadi, o'rganiladi va tematik jihatdan ajratiladi. Dasturchilarga tayyor materiallar platformaga joylash uchun topshiriladi.	Dekabr	
4.	Topilgan yodgorliklar tavsiflanadi, o'rganiladi va tematik jihatdan ajratiladi. Dasturchilarga tayyor materiallar platformaga joylash uchun topshiriladi.	Yanvar	
5.	Rossiya Oltoy fondlaridagi yozma yodgorliklar va epigrafik manbalar matniy bazasi va reestri shakllantiriladi	Fevral	
6.	Turkiy-run yozuvli yodgorliklarning antologiyasi ishlab chiqiladi OAK jurnallarida 2 ta, xalqaro jurnalda 5 ta maqola nashr qilinadi.	Mart	
7.	Xitoy Dunxuan (Turfon) turkiy manbalarini to'plash maqsadida ilmiy safar uyushtiriladi.	April	

8.	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy salohiyotidan unumli foydalanib, turkiy-run yozuvli yodgorliklarning noyob manbalari nashr qilinadi va ularni o'rgatish bo'yicha o'quv adabiyoti nashr qilinadi.	May	
9.	Indiana, Berlin, Frankfurt, Oltoy DU, Pekin davlat universiteti, Sankt Peterburg DU, Istanbul universiteti kabi nufuzli universitetlardagi ilmiy markazlar, kafedralar bilan akademik hamkorlik o'rnatiladi. Loyiha natijalarini xalqaro ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilish maqsadida "Turkiy yozma yodgorliklarni tadqiq etishning muhim masalalari" mavzuidagi xalqaro konferensiya o'tkaziladi. Loyiha doirasida monografiya va o'quv qo'llanma chop etiladi.	Iyun	
10.	Elektron korpusning demo versiyasi ishga tushiriladi. Loyiha doirasida Scopus yoki Web of Science ma'lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda 3 ta maqola chop etiladi.	Iyul	
11.	Elektron korpus takomillashtiriladi "VII-XI asrlarda yaratilgan turkiy yozma yodgorliklarning elektron korpusini yaratish (turkiy-run yozuvli yodgorliklar)" loyihasining elektron korpusi yaratiladi. Olingan natijalar asosida Intellektual mulk agentligiga ariza taqdim etiladi. Yakuniy hisobotni shakllantirish va taqdim etish.	Avgust-Sentabr	
12.	Yakuniy hisobot taqdim etish	Loyihaning yakunlanish yilida oxirgi oyning 15-sanasiga qadar	Yakuniy hisobot (yozma)



Buyurtmachi

Direktor

Sh. Rajabbayev Rektor

Ijrochi



G. Rixsiyeva

Loyiha rahbari

Q. Omonov

LOYIHANING XARAJATLAR SMETASI

(ming so'mda)

T/R	Xarajatlar turi	Xarajatlar moddolari			Xarajatlar umumiy summasi	JAMI (yillar kesimida)				
		Bo'lim	Kichik bo'lim	Bob		1-yil*	2-yil*	3-yil*	4-yil*	5-yil*
HAMMASI:					1 317 692,0	628 172,0	689 520,0	0	0	0
1	Mehnatga haq to'lash xarajatlari	41	11	100	713 907,8	356 953,9	356 953,9	0	0	0
2	Iltimoiy soliq xarajatlari	41	21	100	85 669,0	42 834,5	42 834,5	0	0	0
3	Boshqa xarajatlar	40	00	000	518 115,2	228 383,6	289 731,6	0	0	0
3.1	Xizmat safarlari xarajatlari				82 176,0	61 446,0	20 730,0	0	0	0
	Respublika hududida	42	11	000	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Chet davlatlarga chiqish bilan bog'liq	42	12	000	82 176,0	61 446,0	20 730,0	0	0	0
3.2	Kommunal xizmat xarajatlari				0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Elektroenergiya	42	21	000	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Tabiiy gaz	42	22	000	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Iссиq suv va issiqlik energiyasi	42	23	000	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Sovuq suv va oqova	42	24	000	0,0	0,0	0,0	0	0	0
3.3	Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun materiallar, butlovchi qismlar va tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari				6 300,0	1 600,0	4 700,0	0	0	0
	Tovar - moddiy zahiralarni	42	52	110	1 500,0	0,0	1 500,0	0	0	0
	Qo'g'oz xarid qilish uchun xarajatlar	42	52	120	4 800,0	1 600,0	3 200,0	0	0	0
	Kiyim-kechak, poyabzal va choyshab-g'iloflar	42	52	200	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Oziq-ovqat mahsulotlari	42	52	300	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Dori vositalari	42	52	410	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Tibbiy buyumlar	42	52	411	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Tibbiy uskuna va jihozlar uchun reagentlar va reaktivlar	42	52	412	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Dezinfektsiyalovchi va shaxsiy himoya vositalari	42	52	413	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Vaksinalar va bakteriologik preparatlar	42	52	420	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari	42	52	500	0,0	0,0	0,0	0	0	0
3.4	Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va texnik vositalarni sotib olish xarajatlari				65 337,6	65 337,6	0,0	0	0	0
	Maxsus avtotransport vositalari	43	54	100	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Mebel va ofis jihozlari	43	54	910	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	43	54	920	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	O'quv-laboratoriya uskunalarini sotib olish	43	54	940	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Sport inventarlari va jihozlari	43	54	960	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	43	54	990	65 337,6	65 337,6	0,0	0	0	0
	Yetishtiriladigan aktivlar	43	55	100	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Nomoddiy aktivlar	43	55	200	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Boshqa asosiy vositalar	43	55	900	0,0	0,0	0,0	0	0	0
3.5	Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xarajatlar				364 301,6	100 000,0	264 301,6	0	0	0
	O'qitish xarajatlari	42	91	000	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	42	92	200	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Tovar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	42	99	990	363 701,6	99 700,0	264 001,6	0	0	0
	Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalat to'lovi	48	21	140	600,0	300,0	300,0	0	0	0
	Boshqa xarajatlar	48	21	190	0,0	0,0	0,0	0	0	0



Buyurtmachisi
 Sh.Rajabbayev

Ijrochi
 Rektor
 Loyiha rahbari



Bosh. ber. G. Raximova

Handwritten signatures and initials at the bottom of the page.

T/R	Xarajalar turi	Xarajalar modullari			Xarajalar umumiy summasi	Moliyalaştırish rejası	shu jumladan, bittinchi yil uchun oylar kesimida												Qiyoslash qilinadigan muddat
		Bo'lim	Kiritilish bo'lim	Boh			1-oy	2-oy	3-oy	4-oy	5-oy	6-oy	7-oy	8-oy	9-oy	10-oy	11-oy	12-oy	
HAMMASH:																			
1	Mehnatga haq to'lash xarajalari	41	11	100	628 172,0	596 763,0	33 317,4	33 316	33 316	250 281	33 316	33 316	33 316	33 316	33 316	33 316	33 316	13 321	31 409,0
2	Jihamo soliq xarajalari	41	21	100	356 953,9	339 105,9	29 746,9	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	11 899	17 848,0
3	Boshqa xarajalar	40	00	000	42 834,5	40 692,5	3 570,5	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	1 422	2 142,0
3.1	Xizmat safarlari xarajalari	43	11	000	228 383,6	216 964,6	0,0	0	0	216 965	0	0	0	0	0	0	0	0	11 419,0
	Respublika hududida				61 446,0	58 374,0	0,0	0	0	58 374	0	0	0	0	0	0	0	0	3 072,0
	Chet davlatlarga chiqish bilan bog'liq	42	12	000	61 446,0	58 374,0	0,0	0,0	0	58 374,0	0	0	0	0	0	0	0	0	3 072,0
3.2	Kommunal xizmat xarajalari	42	21	000	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Elektroneg'ya	42	21	000	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Tabiiy gaz	42	22	000	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Issiq suv va issiqlik energiyasi	42	23	000	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Sovuq suv va oqova	42	24	000	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
3.3	Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun materiallar, buyurtma va tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajalari	42	52	110	1 600,0	1 520,0	0,0	0,0	0	1 520	0	0	0	0	0	0	0	0	80,0
	Tovar – moddiy zahiralari	42	52	110	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Oqqe' oz xarid qilish uchun xarajalar	42	52	130	1 600,0	1 520,0	0,0	0,0	1 520,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	80,0
	Kiyim-kechak, poyabzal va cho'shab-g'itolar	42	52	200	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Oziq-ovqat mahsulotlari	42	52	300	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Dori vositalari	42	52	410	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Ibbiy buyumlar	42	52	411	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Ibbiy uskuna va jihozlar uchun reagentlar va reaktivlar	42	52	412	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Dezinfektsiyalovchi va shaxsiy himoya vositalari	42	52	413	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Vaksinalar va bakteriyolovchi preparatlar	42	52	420	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Yonilki va yoqilg'ich moddalar	42	52	500	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
3.4	Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va texnik vositalarni sotib olish xarajalari	43	54	100	65 337,6	62 070,6	0,0	0,0	62 071	0	0	0	0	0	0	0	0	0	3 267,0
	Maxsus avtotransport vositalari	43	54	100	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Mebel va ofis jihozlari	43	54	910	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	43	54	920	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	O'quv-laboratoriya uskunalarini sotib olish	43	54	940	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Sport inventarlari va jihozlari	43	54	960	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	43	54	990	65 337,6	62 070,6	0,0	0,0	62 070,6	0	0	0	0	0	0	0	0	0	3 267,0
	Yetishtiriladigan aktivlar	43	55	100	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Nomoddiy aktivlar	43	55	200	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Boshqa asosiy vositalar	43	55	900	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
3.5	Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xarajalar	42	91	000	100 000,0	95 000,0	0,0	0,0	95 000	0	0	0	0	0	0	0	0	0	5 000,0
	O'qitish xarajalari	42	91	000	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Asbobot va kommunal asbobot xizmatlari	42	92	200	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0
	Tovar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha boshqa xarajalar	42	99	990	99 700,0	94 715,0	0,0	0,0	94 715,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	4 985,0
	Elektron davlat xizmatlarida ishtirok etish uchun zakavat to'lovi	48	21	140	300,0	285,0	0,0	0,0	285,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	15,0
	Boshqa xarajalar	48	21	190	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0

Chiqirib qolinadigan summa shartnomaning 5-bandida belgilangan shartlar bajarilgan taqdirda moliyaviydir.

T/R	Xarajatlar turi	Xarajatlar moddalarini			Xarajatlar umumiy summasi	Moliya-lashtirish rejayi	shu jumladan, ikkinchi yil uchun oylar kesimida												Chegirtib qolinadigan summa*
		Boʻlim boʻlim	Kichik boʻlim	Bosh			1-oy	2-oy	3-oy	4-oy	5-oy	6-oy	7-oy	8-oy	9-oy	10-oy	11-oy	12-oy	
	HAMMASI:				689 520,0	655 044,0	33 317,4	33 316	33 316	308 562	33 316	33 316	33 316	33 316	33 316	33 316	33 316	13 321	34 476,0
1	Mehnatga bogʻliq xarajatlari	41	11	100	356 953,9	339 105,9	29 746,9	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	29 746	1 422	17 848,0	
2	Jiymov soʻgʻ xarajatlari	41	21	100	42 834,5	40 692,5	3 570,5	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	3 570	1 422	2 142,0	
3	Boshqa xarajatlari	40	00	000	289 731,6	275 245,6	0,0	0	0	275 246	0	0	0	0	0	0	0	14 886,0	
3.1	Xizmat saflarini xarajatlari	42	11	000	20 730,0	19 694,0	0,0	0	0	19 694	0	0	0	0	0	0	0	1 036,0	
	Respublika hududida																	0,0	
	Cheh davlatlariga chekinish bilan bogʻliq	42	12	000	20 730,0	19 694,0	0,0	0	0	19 694,0	0	0	0	0	0	0	0	1 036,0	
3.2	Kommunal xizmat xarajatlari				0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0	
	Elektroenergiya	42	21	000		0,0												0,0	
	Tabiiy gaz	42	22	000		0,0												0,0	
	Issiq suv va issiqlik energiyasi	42	23	000		0,0												0,0	
	Sovud suv va ogʻova	42	24	000		0,0												0,0	
3.3	Ilmiy-tadqiqot ishlarini uchun materiallar, butlovchi qismlar va tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari				4 700,0	4 465,0	0,0	0	0	4 465	0	0	0	0	0	0	0	235,0	
	Tovar – moddiy zahiralari	42	52	110	1 500,0	1 425,0				1 425,0								75,0	
	Oqir oz xarid qilishi uchun xarajatlari	42	52	120	3 200,0	3 040,0				3 040,0								160,0	
	Kiyim-kechak, poyabzal va chiyoshab-eʼlloflar	42	52	200		0,0												0,0	
	Oziq-ovqat mahsulotlari	42	52	300		0,0												0,0	
	Dori vositalari	42	52	410		0,0												0,0	
	Tibbiy buyumlar	42	52	411		0,0												0,0	
	Tibbiy uskuna va jihozlar uchun reagentlar va reaktivlar	42	52	412		0,0												0,0	
	Dezinfektsiyalovchi va shaxsiy himoya vositalari	42	52	413		0,0												0,0	
	Vaksinalar va bakteriotologik preparatlar	42	52	420		0,0												0,0	
	Yonilge* va yodliq-iyonlovch materiallari	42	52	500		0,0												0,0	
3.4	Ilmiy-tadqiqot ishlarini uchun zarur boʻlgan asboblari va texnik vositalarni sotib olish xarajatlari				0,0	0,0	0,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0,0	
	Maxsus avtofinansport vositalari	43	54	100		0,0												0,0	
	Mebel va ofis jihozlari	43	54	910		0,0												0,0	
	Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	43	54	920		0,0												0,0	
	Kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930		0,0												0,0	
	Oʻquv-laboratoriya uskunalarni sotib olish	43	54	940		0,0												0,0	
	Sport inventarlari va jihozlari	43	54	960		0,0												0,0	
	Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	43	54	990		0,0												0,0	
	Yenishirildirgan aktivlar	43	55	100		0,0												0,0	
	Nomoddiy aktivlar	43	55	200		0,0												0,0	
	Boshqa asosiy vositalar	43	55	900		0,0												0,0	
3.5	Loyihani amalga oshirish bilan bogʻliq boshqa xarajatlari				264 301,6	251 086,6	0,0	0	0	251 087	0	0	0	0	0	0	0	13 215,0	
	Oʻqitish xarajatlari	42	91	000		0,0												0,0	
	Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100		0,0												0,0	
	Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	42	92	200		0,0												0,0	
	Tovar va xizmatlarni sotib olish boʻyicha boshqa xarajatlari	42	99	990	264 001,6	250 801,6				250 801,6								13 200,0	
	Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zaklat toʻlovi	48	21	140	300,0	285,0				285,0								15,0	
	Boshqa xarajatlari	48	21	140		0,0												0,0	

*Chegirtib qolinadigan summa shartnomaning 5-bandida belgilangan shartlar bajarilgan taqdirda moliyalashtiriladi.